

URBANIZATSIYA VA SHAHARSOZLIK SOHASIDA YAPONIYA TAJRIBASI

Mustaqil izlanuvchi U.R.OKTYABIROV, uaktyabirov@gmail.com, <tel:93-414-14-81>)

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Anotatsiya: Bugungi kunda Yaponiya o'zining barqaror iqtisodiyoti va shaharsozligi tufayli dunyoning eng rivojlangan davlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat poytaxti metropoliten hududi aholi 41 million kishidan ziyod bo'lgan Tokyo esa dunyoning aholi eng zich bo'lgan shahardir. Ho'sh atrofi suv bilan o'ralgan, cheklangan yer maydoni va tabiiy resurslari deyarli mavjud bo'lmagan Yaponiyada urbanizatsiya va shaharsozlik qanday qilib taraqqiy etdi? Mazkur savolga quyida batafsil javob topishga harakat qilamiz.

Аннотация: Сегодня Япония является одной из наиболее развитых стран мира благодаря стабильной экономике и урбанизму. Агломерация столицы страны Токио с населением более 41 миллиона человек является самой густонаселенной город в мире. Как развивалась урбанизация и городское развитие в Японии, окруженной водой, ограниченной территорией и почти несуществующими природными ресурсами? Подробный ответ на этот вопрос мы постараемся найти ниже.

Abstract: Today, Japan is one of the most developed countries in the world due to its stable economy and urbanism. The metropolitan area of the country's capital, Tokyo, with a population of more than 41 million people, is the most densely populated city in the world. How did urbanization and urban development develop in Japan, surrounded by water, limited land area and almost non-existent natural resources? We will try to find a detailed answer to this question below.

Kalit so'zlar: urbanizatsiya, barqaror shaharsozlik, shaharsozlik hujjatlari, Shaharni rejalashtirish akti, Qurilish akti, Yerdan foydalanish akti, Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi va boshqalar.

Ключевые слова: урбанизация, устойчивое городское развитие, градостроительные документы, Закон о городском планировании, Закон о строительстве, Закон о землепользовании, Национальная пространственная информационная инфраструктура и др.

Keywords: urbanization, sustainable urban development, urban planning documents, City Planning Act, Construction Act, Land Use Act, National Spatial Information Infrastructure, etc.

Yaponiyada shaharsozlik jarayonlarining dastlabki rivojlanish tendensiyalari 1868-yildan keim boshlandi. Bunga eng avvalo hukumatning transformatsiyasi va amalga oshirilgan islohotlar sabab bo'ldi. Zamonaviy shaharsozlikni rivojlantirish maqsadida hukumatning turli xil qarorlari qabul qilindi. O'z navbatida Yaponiyada urbanizatsiya va shaharsozlik jarayonlarining rivojlanishi 9 ta bosqichga bo'lish mumkin.²

1-bosqich: Shaharsozlikni g'arblashgan davri (1868-1887)

2-bosqich: Shaharsozlikni rivojlanishi (*Shikukaei*) davri (1880-1918)

3-bosqich: Shaharlarni rejalashtirish tizimini joriy etish davri (1910-1935)

4-bosqich: Urush davri shaharsozligi (1931-1945)

5-bosqich: 2-jahon urushidan keyingi shaharlarni qayta qurish davri (1945-1954)

6-bosqich: Asosiy qonunning yo'qligi davrida shaharsozlikni rivojlantirish (1955-1968)

7-bosqich: Yangi qonun davri (1968-1985)

8-bosqich: Noqulay rejalashtirish va ko'pikli iqtisodiyot davri (1982-1992)

9-bosqich: Fuqarolar tomonidan boshqariladigan, markazlashtirilmagan shahar rejalashtirish davri (1992-2003)

Dunyo davlatlarining barchasi o'ziga hos mintaqaviy, geosiyosiy, iqlimiy xususiyatlarga ega bo'lib Yaponiya davlati shaharsozligining asosiy omili sifatida yer silikninishlaridir. Sababi mazkur davlat yer sharining silkinishlar doimiy faol bo'lgan qismida joylashgan.

A-guruh

- Milliy yer kengaqamrovli rivojlantirish qonuni
- Yerdan foydalanish milliy qonuni
- Milliy poytaxt hududini rivojlantirish qonuni
- Milliy yerlarni rivojlantirishda magistral yo'llarni qurish akti

B-guruh

- Qishloq hududlarini muhofaza qilish va rivojlantirish akti
- O'rmon to'g'risidagi qonun
- Yerlarni eksproportsiya qilish to'g'risidagi qonun

Shaharsozlik qonunchiligi

C-guruh

Yerni zonalashtirish bo'yicha

- Qurilish standarti qonuni
- Portlari to'g'risidagi qonun
- Shahar hududidagi qishloq yerlaridan foydalanish to'g'risidagi akt

Shaharsozlikni rivojlantirish loyihalari bo'yicha

- Yerni qayta belgilash qonuni
- Yangi turar-joylarni tashkil etish to'g'risidagi qonun
- Qayta shaharlashtirish qonuni

Shahar qulayliklari bo'yicha

- Yo'l to'g'risidagi qonun
- Tramvay yo'llari to'g'risidagi qonun
- Daryo to'g'risidagi qonun
- Shahar parklari to'g'risidagi qonun
- Oqova suv to'g'risidagi qonun
- Avtoturargoh to'g'risidagi qonun

Shu munosabat bilan, shaharsozlik siyosati, shuningdek shaharlar qurilishi va sohaga tegishli normalar va qoidalar ham tabiiy ofatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan va doimiy ravishda takomillashtirib boriladi

Yaponiyaning bugungi kundagi shaharsozlik qonunchilik tizimi quyidagicha tashkil etilgan:³

Yaponiya shaharsozligining keskin rivojlanishi 1968-yildan keyin Shaharlarni rejalashtirish akti qabul qilingandan so'ng sodir bo'ldi. Asosiy shaharlar bo'lgan Tokyo, Osaka, Kyoto kabi yirik shaharlarda aglomeratsiya jarayonlari jadallashib bordi va urbanizatsiya jarayonlari shaharlarning metropolitan hududlariga qadar kengayib bordi. Umuman olganda dunyo bo'ylab urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanib borishi, barqaror shahar muhitining tashkil etilishi muddatlari ham turlicha bo'lgan. Masalan:



Yaponiya hukumatining shaharsozlik siyosatini olib boruvchi ma'sul vazirlik Yer, infatuzilma, transport va turizm vazirligi hisoblanadi. Mazkur vazirlik mamlakatning shaharsozlik va urbanizatsiya sohasida yagona siyosat olib boruvchi organdir. Biroq O'zbekistondan farqli o'laroq vazirlikning hududiy boshqarmalari yoki bo'limlari mavjud emas. Bunga asosiy sabab esa 1981-yillarda Yaponiyada markazlashtirish siyosatining amalga oshirilishi⁴, hukumatning ixchamlashtirilishi va mahalliy hokimliklarning tuzilishining o'zgarishi bo'lgan.

Yer, infatuzilma, transport va turizm vazirligi bilan bir qatorda Yaponiyada Shaharni qayta qurish agentligi (UR-Urban renaissance agency)⁵ shaharsozlik sohasidagi muhim ijro etuvchi agentlik hisoblanadi.

Shaharni qayta qurish agentligi 1955-yilda tashkil etilgan bo'lib, dastlab Yaponiya uy-joy korporatsiyasi sifatida nomlangan. Uning asosiy vazifasi sifatida yangi uy joylar qurish, shaharning eski hududlarini renovatsiya qilish hisobiga shahar muhitini yanada qulay va jozibador qilish, aholining ijtimoiy ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi obyektlar, jumladan parklar, dam olish hududlar, kichik shaharsozlik elementlari, zamonaviy landshaftlarni tashkil etish, shuningde, shahar infratuzilmasini yanada yaxshilashdan iborat.

Bugungi kunda agentlik mustaqil institut sifatida milliy va mahalliy hukumatning muhim va yirik loyihalarini amalga oshiradi. Shuningdek agentlikning mamlakat bo'ylab 750 mingdan ziyod uy-joylarni mulkdori va boshqaruvchisidir.

Shaharsozlik siyosatining yana bir o'ziga xos usullaridan biri **Yerni qayta tuzish** (*Land readjustment project*) va **Shaharni hududini rivojlantirish** (*Urban redevelopment project*) loyihalaridir. Bu kabi loyihalar O'zbekiston shaharsozligida hali qo'llanilmagan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, rivojlangan davlatlar shaharsozligini eng muhim asosi bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik xizmat qilgan. Yaponiya 2 jahon urushidan keingi mag'lubiyatidan keyin jadallash rivojlanishining asosiy sabablaridan biri sanoatning o'sishi bo'ldi. Mamlakatda sanoat rivojlanishi natijasida eksport hajmi ortdi va mamlakat shaharsozligining barqaror rivojlanishi, infratuzilma obyektlarining tizimli rejalashtirilishi natijasini bugungi kunda Yaponiya amalga oshirgan ulkan islohotlarda ko'rishimiz mumkin. Zero, barqaror shaharsozlik albatta iqtisodiy salohiyatdan kelib chiqqan holda rejalashtirilishi va mamlakatning rivojlanishi uchun xizmat qilishi lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://planning-org-uploaded-media.s3.amazonaws.com/documents/UrbanPlanningSystem_all.pdf
2. <https://www.gdrc.org/uem/observatory/jp-laws.html>
3. chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.jcie.org/researchpdfs/RoadPluralism/plu_furukawa.pdf
4. <https://www.ur-net.go.jp/overseas/about/index.html>